Dastlabkima’lumotlar

# 2022- yilning yanvar–iyun oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar–iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 11 994,0 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar– 11 877,6 mlrd. so‘mni (102,6 %), o‘rmon xo‘jaligi– 92,4 mlrd. so‘mni (102,1 %), baliqchilik xo‘jaligi – 24,0 mlrd. so‘mni (112,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 9,1 % ni tashkil etdi.



**11 994,0** — Surxondaryo viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01 — **11 877,6** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **92,4** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **24,0** — Baliqchilik xo‘jaligi

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2022- yilning yanvar–iyun yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 99,0 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar, 0,8 % i – oʻrmon xoʻjaligi, 0,2 % i – baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2022- yilning yanvar-iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (2 195 mlrd. soʻm) va Sherobod tumanlarida (1 242 mlrd. soʻm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (46 mlrd. soʻm), Bandixon (442 mlrd. soʻm) va Qiziriq tumanlari (509 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Viloyat koʻrsatkichidan (102,6 %) yuqori oʻsish surʼatlari Shoʻrchi (106,7 %), Muzrabot (106,0 %), Termiz shahrida (106,0 %), Denov (105,3 %), Uzun (105,1 %), Oltinsoy (104,4 %), Sherobod (103,2 %) va Jarqoʻrgʻon tumanlarida (102,9 % ) kuzatildi. Qumqoʻrgʻon (102,3 %), Boysun (101,4 %), Sariosiyo (101,2 %), Bandixon (100,9 %), Angor (100,1 %), Qiziriq (96,0 %) va Termiz tumanlarida (89,8 %) esa aksincha oʻsish surʼatlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar–iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 11 806,8 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari–6 446,0 mlrd. so‘mni (102,3 %), chorvachilik mahsulotlari–5 360,8 mlrd. so‘mni (103,0 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 75,2 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 19,9 % i – fermer xo‘jaliklariga, 4,9 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2022- yilning yanvar–iyun oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Muzrabot tumanida (31,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Termiz shahrida (99,3 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Termiz tumanida (20,5 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Qiziriq tumanida (0,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Muzrabot tumanida (63,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Boysun va Qiziriq tumanlarida (0,2 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6 446,0 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 54,6 % ni tashkil qildi.

## Don jami

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 617,2 ming t. don (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 4,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 72,5 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

Hajmi, ming t.




O‘sish sur’ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi






2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 217,9 ming t. kartoshka (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 3,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 564,5 ming t. sabzavot (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 59,3 ming t. poliz (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 2,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Mevalar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 78,8 ming t. meva (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 75,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha meva yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 13,8 ming t. uzum (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 1,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



# Chorvachilik



2022- yilning yanvar – iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5360,8 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 45,4 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 89,6 ming t. go‘sht (2021- yilning yanvar –iyuniga nisbatan 1,4 % ga ko‘p), 435,0 ming t. sut (2,2 % ga ko‘p), 274,5 mln. dona tuxum (17,1 % ga ko‘p), 1 526,0 t. jun (1,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 1 405,7 t. baliq (12,6 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 89,6 ming t. go‘sht (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 1,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 435,0 ming t. sut (2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 274,5 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 17,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 50,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq












2022- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 405,7 t. (2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 12,6 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 73,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022- yilning 1- iyul holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,0 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga, 92,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 1,8 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri kelishini qayd etib oʻtish lozim, shunga mos ravishda qoʻy va echkilarning umumiy sonidan 18,9 % i fermer xoʻjaliklariga, 78,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 3,0 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʼri keladi, otlar umumiy sonidan 28,0 % i fermer xoʻjaliklariga, 69,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 3,0 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 9,0 % i fermer xoʻjaliklariga, 57,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 33,3 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi.

2022- yilning 1- iyul holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 966,9 ming boshga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xoʻjaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 18,1 ming boshga (1,9 %) koʻpaydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**Oʻsish surʼati**




**Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




Fermer xoʻjaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari

Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- iyul holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlar xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga toʻgʻri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni,

## ming bosh



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 344,7 ming boshga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 6,4 ming boshga (1,9 %) ko'paydi.

## Sigirlar












2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 92,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 474,7 ming boshga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 55,6 ming boshga (2,3 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**








2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 78,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 15 306 taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 441 taga (3,0 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 69,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 4 673,3 mingtaga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 41,4 mingtaga (0,9 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 57,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi
• 76-225-65-78